

## HAR IMKONIYATDAN UNUMLI FOYDALANGAN AYOLLAR

**Tolliboyeva Shahnozabonu**

O'zbekiston Jurnalistika va Ommaviy Kommunikatsiyalar Universiteti  
talabasi

**Annotatsiya:** Quyidagi maqola amerikalik yozuvchi Cara Elvill Leybaning "Girl Code,, asari to'g'risida bo'lib, asarda hayotda qolishga uringan va buni uddasidan chiqqan ayollar haqida bayon etiladi.

**Аннотация:** Данная статья посвящена произведению «Девичий код» американской писательницы Кары Элвилл Лейба.

**Annotation:** The following article is about the American writer Cara Elville Leyba's book "Girl Code".

**Kalit so'zlar:** muvaffaqiyat, ayol, biznes, imkoniyat, qobiliyat.

**Ключевые слова:** успех, женщина, бизнес, возможность, способности.

**Key words:** success, woman, business, opportunity, ability.

**Kirish qismi:** Har bir ayol, qiz muvaffaqiyat qozonishni oila a'zolari, yaqinlari u bilan faxrlanishini xohlaydi. Hozirgi kunda ayollarga berilgan imkoniyatlarni ko'rib inson hayratga tushadi. Shu imkoniyatlardan men ham foydalanib bu gal biznesga oid kitob izlashga kirishdim. Cara Elvill Leybaning "Girl Code,, kitobi e'tiborimni tortdi. Sababi, bu kitobni ilk bor varaqlaganimda unda shunday so'zlar yozilgan edi: "O'z ishtiyoqlari bilan yashashni orzu qilgan har bir ayolga bag'ishlanadi. Siz tasavvur qiladigan hamma narsani amalga oshirish mumkin,,. Kitob dunyo miqyosida bestseller darajada chiqib ulgurgani yana bir marotaba qiziqishimni oshirdi. Dunyoda jadal sur'atlarda yosh, quvvati ichiga sig'maydigan, o'z biznesi va aql bovar qilmas karyera haqida orzu qiladigan qizlar haqida hikoya qilingan. Kitob o'z ishida muvaffaqiyatga erishishni istagan qizlar uchun "yo'l xarita,, sini taqdim etadi. To'qqiz bobning har birida g'ayrioddiy ayollar hikoyalari bilan tanishamiz hamnbirgalikda hayratlanamiz.

**Asosiy qism:** Asarni qo'lga olar ekansiz uni muqovasidagi jumlalar e'tiborni tortmasdan qolmaydi. "Shaxsiy hayotda, do'stlik va biznesda muvaffaqiyat kodini qanday ochish mumkin?,,. Bu savol har bir insonni qiyinab keladi nazarimda. Odamzot borki hayotda qolishga, imkoniyatlarini ko'paytirishga, o'ziga yaxshilarini ilinishga harakat qiladi. Kitobni o'qir ekansiz siz yagona xilqat ekanligingiz, hayotdagi hamma narsadan o'zingiz muhimligingizni tushunib yetasiz. Cara Elvill 2008-yildan boshlab "Shampan

vinosi parhezi,, nomli blog yurgiza boshlagan. Har hafta yangi hikoylar bilan bo'lisha turib, ma'lum vaqt o'tgandan keyin uning postlarini o'qib, undan xullas olgan qizlardan xatlar kela boshlagan. Caraga yangi bosqichda gaplashishni boshlaydigan, do'stlasha oladigan va bir-birini qo'llab-quvvatlash uchun guruh tuzadigan ayollarni kuzatish yoqimli bo'lgan. O'z ishini sevgan har bir inson hayotidan zavqlanib yashaydi. Afsuski, hamma ayollar ham muvaffaqiyatlarining boshida oila a'zolari bilan bo'lisha olishmaydi. Tabiiyki, oila a'zolarining ko'pchilik qismi, yaqinlari, do'stlari biznes boshlaganda to'g'ri qabul qilmaydi. Shunday holatlarni ko'rgan muallif o'z biznesini endi boshlagan har bir o'quvchiga motivatsiya maqsadida "Girl Code,,ni yozadi. Kitobdagagi mashhurlik shohsupasini qo'lga kiritgan omadli, ishbilarmon ayollar bilan yillar davomida yig'ilgan intervylardan bir qanchasi bayon qilingan. Intervylarga alohida nomlar, hatto affarizmlar ham yozilgan bo'lib ularni o'qigan kitobxon o'zida ishonch paydo bo'lganini sezadi. Bunga sabab esa har bir inson uchun alohida Allah tomonidan berilgan risq borligi, kimdir siz kabi ish boshlasa sizni risqingiz kamaymasiligi haqida qisqagina tushuncha kiritib o'tilgan."Birovning g'alabasi sizning mag'lubiyatingizni anglatmaydi,, - degan jumlaning o'zi insonga qanchalik ta'sir qilishini choraszilikda qolgan kishigina yaxshi angraydi. Biznes tushunchasiga to'g'ri kelmaydigan bitta narsa bordir. Bu - drama. Hayotda va biznesda sizni o'rab turgan narsa baxtingiz, sog'ligingiz va muvaffaqiyatingizga ta'sir qiladi. Shuning uchun sizni qo'llab-quvvatlaydigan, orzularingiz uchun yordam beradigan jamoangiz bo'lsin. Gap ularning sonida emas, asosiyi shunday insoningizni borligi baxtning bir ko'rinishidir. Buni anglash uchun esa xatolarni qabul qilish, hamma ham xato qilishi mumkinligiga ishonish, har bir salbiy fikr bildirgan inson sizni yomon ko'radi degan fikrdan yiroq bo'lish lozim. Siz rivojlanganingiz sari oldingizda inson kamayadi. Sizni qabul qila olmagan insonlar ketadi. Ammo siz rivojlanishdan to'xtamang, shundagina yangi bosqich, yangi hikoya boshlanadi. Intervyuda qatnashgan har bir ayoldan nimadan ilhomlanishi to'g'risida so'ralganida ulardan har birisi atrofida bir insonlardan, voqealardan ilhomlanishini aytganlar. Bu hayotiy kitob bo'lib, undagi har bir qahramon hikoyasidan keyin ularni ijtimoiy tarmoqdagi sahifalari ham berilgan. Buni ko'rgan kitobxon, albatta, shu insonlar bilan qiziqli shularni eslatib o'tish lozim deb bildim:

- Cara bilan yorqin va muvaffaqiyatli ayollar ko'lamin ol;
- hasadni havasga, dushmanlaringni esa do'stlaringga aylantir;
- xeyterlar va tanqidchilar muammosini hal etishni o'rgan;

- boringni orginallikga tik, nima yaratishingga qaramay, ularda sening imzoying ko'rinib tursin;
- qo'rqma;
- o'zingga ishon, hamma narsani qila olishingga ishon.

**Xulosa:** So'zimning so'ngida shuni takidlashim kerakki, kitob barchaga tushunarli bo'lishi uchun sodda tilda yozilgan. Bo'lajak biznesga kirmoqchi bo'lgan xonimlar uchun ayni kerakli ma'lumotlar mavjud. Xususan, hasad insonga yordam bermasligi, uning o'rmini raqobat hisi egallasa rivojlanish, o'sish bo'lishi mumkinligini anglab olasiz. Har bir inson tug'ilarkan unga risq alohida yoziladi. Shunday ekan, nega insonlar bir-birlaridan rivojlanish yo'larini yashirishadi. Qobiliyatini bilgan, his qilgan xonimlar ham o'z sevgan ishlari bilan shug'llanishadi va moliyaviy yuksalib borishadi. Hayotimda ko'p o'z ishini ustasiga aylangan ayollar ni ko'rdim, va shuni angladimki, o'z ishini sevgan inson hech qachon ortqaga chekinmaydi. Kitobdag'i qahramonlarning ijtimoiy sahifalari bilan tanishib chiqdim. Aksariyati hozirgi qalb kasblarining boshida hobbi qilib boshlagan. Biroq, hozirda muvaffaqiyat egalarini shu darajada ko'rib, ularning o'mida bo'lib qolishni istashlari turgan gap. Shunday ekan, hozirgi daqiqadan boshlash darkor. Bugun ayni vaqt ertaga kech bo'lishi mumkin!

#### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Cara Elvill Leybaning "Girl code,, kitobi
2. [www.TheChampagneDiet.com](http://www.TheChampagneDiet.com)